

SOFOKLNING “SHOH EDIP” TRAGEDIYASIDA OBRAZLAR TIZIMI

*Ahmadjonova So'najon**Urganch Ranch texnologiya universiteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Sofoklning “Shoh Edip” tragediyasidagi obrazlarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, xudolar va insonlarning o'zaro munosabatlari taqdir va erkin iroda o'rtasidagi ziddiyatlar hamda axloqiy qadriyatlar muhokama qilindi.

Kalit so'zlar: obraz, tragediya, sujet, tahlil, obrazlar tizimi

Sofokl yunon tragediyasining ikkinchi namoyandasi 486-yilda Afinaning yaqinidagi Kalonaga yaqin joyda tug'iladi. Uning otasi qurol-aslaha korxonasining egasi, zamonasining ancha badavlat va baobro' kishisi bo'lgan. Sofokl yoshligida yaxshi tahsil ko'radi, turli -tuman bilimlarni o'rganadi. Uning adabiy faoliyati erta boshlanadi 28 yoshida esa dramatik adiblar musobaqasida ulug' Esxil ustidan shon - shavkatda, izzat va hurmatda o'z yurtida o'tkazib 406-yil vafot etadi. O'limidan keyin yunon elining ulug' zotlari qatori u ham qahramon sanalib, xotirasi uchun katta haykal o'rnatiladi. Antik manbalarga ko'ra 123 drama yozgan shulardan 7 ta va ayrim dramalaridan parchalar ba'zi lirik she'rlar yozib kelgan. Uning "Traxinalik ayollar" tragediyasidan boshqa barcha asarlari oliyjanob kishilarning nomlari bilan atalgan va asarlarning qahramonlari murakkab vaziyatda do'q -po'pisalarga yoxud murosasozlikka da'vat etuvchi qahramonlardir. Sofokl tragediyalarining qahramonlari o'z istaklariga qarshi o'laroq taqdiri azalning qurboni sifatida gavdalanadilar. Sofokl Esxildan farqli o'laroq tragediyaning ko'rinishlaridan voz kechib hat bir asari sujetining mustaqilligiga erishadi. Sofokl jahon adabiyoti tarixidan bir necha monumental obrazlarni yaratgan ijodkor va jiddiy dramatik kompozitsiyalar ustasi sifatida o'rin egallagan. Sofokl o'z zamonasida ko'p variantlarda tarqagan Edip Lay haqidagi afsonalarga katta qiziqish bilan qaraydi, bunday afsonalar asosida "Shoh Edip" "Edip Kalonda" "Antigona" deb nomlanuvchi trilogiya yozadi. Afinalik yozuvchi Sofoklning ushbu asari bugungi kungacha saqlanib qolgan eng zalvorli o'lmas nodir asardir. Muallif vafotidan yigirma asr o'tgan bo'lsa-da u o'z mashhurligini qimmatligini yo'qatmagan. Sofoklning zamondoshlari va donishmand Arastu ushbu spektakni mualliflik mahoratining cho'qqisi deb hisoblaganlar. Bu asarni Asqad Muxtor 1958-yilda Moskva shahrida chop etadi va ruscha tarjimasidan o'zbekchaga o'giran. Bu asar o'zbek tilidagi ilk va yagona tizimdir. Ushbu asar taqdiri qudratli hudolar tomonidan boshqarilgan odamning baxtsizliklari haqidagi asardir. Sofokl antik davr tragediyalari uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan shaxsning ma'naviy shakllanishi muammosini yechishda dunyoning Parvardigor

tomonidan idora etishini nazardan qochirmagan. Shoh Edip tragediyasida qadimgi yunon mifologiyasidan keng foydalanilgan. Bu asar o'tgan 2500yil mobaynida jahon teatr sahnasidan tushmay keladi. Tragediya (echki qo'shig'i)-fojia adabiyotning dramatik tur janridan biri. Qadim yunonlarda hosil hudosi Dionis sharafiga xalq bayramlari o'tkazilgan. Keyinchalik bu so'z oqibati fojia bilan tugaydigan sahna asarlariga nisbatan qo'llana boshlagan. Gegel "Shoh Edip" asarini insoniyatning matriaxatdan patriarxatga o'tish jarayoning o'ziga hos ramz deb baholanadi. Shoh Edip qismatida insoniyat taqdirini tug'ilishi, yuksalishi va inqirozi ramzini ko'radi. U asardagi taqdiri azal hukm Shoh Edip o'ng otasini o'ldirib bilmasdan onasiga uylanishi voqeasida emas, balki Shoh Edipning o'zida yashirinligini ya'ni Shoh Edip jamiyatdagi yashash uchun kurashayotgan inson obrazi sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Shoh Edip bu taqdirning ilohiyligi va uning muqarrarliligi haqidagi asrlar davomida sharaflangan haqiqatning so'nmas ifodasidir. "Shoh Edip" dagi voqealar qanchalik dahshatli bo'lsa ham hamma vaqt kuchli yorqin taassurot qoldirib, insoniyatning yangi davr sahnalaridan tushmaydi. Edipning fojiasi uning onasiga matriaxatda bo'lgan muhabbatidir degan. Edip asarida juda uddaburon, dona (Fiva shahri ostonasida paydo bo'lgan Sfinks maxluqining hech kim topa olmagan topishmog'iga ham faqat ugina yechim topib, xalqni kulfatdan qutqaradi) fidoyi obraz sifatida namoyon bo'ladi. Uning timsolida ham o'sha davr koloriti namoyon bo'ladi, ya'ni har bir Hudo ma'budlarga yuzlanib ulardan to'g'ri yo'l va maslahat so'raydi. Xudolardan qo'rqish va ularga itoat etish barcha miflarda namoyon bo'ladigan hodisa esa Edip juda adolatli edi, u xalq boshiga tushgan sabablar uchun farmon berib, bu farmonga ko'ra inson foniy dunyoda qaysi pog'onada -xoh shoh bo'lsin, xoh oddiy fuqaro, hech kim o'z qilmishiga yarasha jazo olmay qolmasligi ta'kidlanadi. Shu voqea yuz berganida Edip o'zining kimligini bilmasdi keyin o'z qilgan hatosini tushunib yetadi. Shoh Edip dagi voqealar qanchalik dahshatli bo'lsa ham hamma vaqt kuchli yorqin taassurot qoldirib, insoniyatning yangi davr sahnalaridan tushmaydi.

Xulosa sifatida shuni aytishim mumkinki, asardagi voqea yuz bergan paytda Edip o'zining kimligini bilmaydigan va jinoyat sodir etayotganini ham bilmay qoladi. Edip ham qanchalik fidoyi, aqilli, dono bo'lmasin, u ham o'z g'azabiga qarshi ish ko'ra olmaydi. Bir Inson qalbida yaxshi va yomon xulq o'zaro kurashda bo'ladi. Edip o'sha chorrahada behuda g'azabini jilovlay olmagan uchun o'zini qoralaydi. Hech qaysi ilohga ishonib farzandini tashlab yuborishning xojati yo'q edi. O'g'lini go'dakligida o'linga yuborgan ota o'z taqdirini hal qildi, shu bilan Edip emas balki ota o'z o'g'lining qo'llari bilan o'zini o'zi o'ldirdi. Sofokl juda mahoratga ega edi. Sofoklning "Shoh Edip" tragediyasida obrazlar tizimi asarning mazmuni va g'oyaviy mohiyatini chuqur ifodalovchi muhim elementdir. Ushbu tizimda asosiy qahramon Edipning taqdiri va ruhiy kechinmalari markaziy o'rinda turadi. Edipning o'z ota - onasini bilmasdan o'ldirishi, va onasiga uylanib qolishi uning bexosdan amalga oshirgan fojiali

xatti- harakatlari orqali insoniyatning zaifligi va taqdirga qarshi kurashdagi bevosita tasavvurini aks ettiradi. Shunday qilib, "Shoh Edip " tragediyasidagi obrazlar tizimi orqali insonning ichki dunyosi chuqur va ta'sirchan tarzda ifodalangan."Shoh Edip" tragediyasi bugungi kunda ham o'zining dolzarbligi va ahamiyatini yo'qatmagan. U insoniyatning abadiy savollariga javob izlaydi, va tomoshabinlarga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sofokl. Shoh Edip. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – 76 b.
2. Sh.Normatova .Jahon adabiyoti .T.,2008
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/dunyo-adabiyoti-turkumi-sofokl.html>.